



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024- yil 1- yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **19 923** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **16 677** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi **77,1** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **74,2** foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **125** taga kamayganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar **244** taga ko'paygan, oilaviy korxonalar **242** taga kamaygan.


## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	969	18,5 %	Zarbdor t.	264	25,0 %
G'allaorol t.	526	28,6 %	Mirzacho'l t.	205	26,5 %
Zomin t.	447	25,7 %	Arnasoy t.	204	28,5 %
Sharof Rashidov t.	444	17,2 %	Zafarobod t.	187	29,2 %
Forish t.	375	25,1 %	Do'stlik t.	162	19,2 %
Baxmal t.	367	26,0 %	Yangiobod t.	120	22,9 %
Paxtakor t.	272	25,5 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **19 923** tani tashkil etib, 2023- yilning mos davriga (**25 847** ta) nisbatan **5 924** taga quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayganligi bilan ifodalash mumkin: savdo – **6 747** tadan **5 599** taga (kamayish **1 148** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4 655** tadan **3 388** taga (kamayish **1 267** ta), sanoat – **4 080** tadan **2 571** taga (kamayish **1 509** ta).

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	5 241	Zarbdor t.	1 057
Sharof Rashidov t.	2 585	Do'stlik t.	843
G'allaorol t.	1 836	Mirzacho'l t.	773
Zomin t.	1 737	Arnasoy t.	717
Forish t.	1 492	Zafarobod t.	641
Baxmal t.	1 411	Yangiobod t.	523
Paxtakor t.	1 067		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **4 452** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **4 424** ta;
- yirik korxonalar **28** ta.



## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	936	20,8 %	Zarbdor t.	260	29,8 %
G'allaorol t.	518	33,0 %	Mirzacho'l t.	203	32,8 %
Zomin t.	439	30,5 %	Arnasoy t.	202	35,1 %
Sharof Rashidov t.	436	19,3 %	Zafarobod t.	184	36,7 %
Forish t.	373	28,8 %	Do'stlik t.	158	23,8 %
Baxmal t.	356	31,1 %	Yangiobod t.	116	27,2 %
Paxtakor t.	271	30,6 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- yanvar holatiga **16 759** taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,2** foizni tashkil etdi (**2 701** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **33,4** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **20,0** foiz, sanoat – **15,3** foiz, qurilish – **9,1** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,1** foiz, tashish va saqlash – **2,5** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,5** foiz, axborot va aloqa – **1,4** foiz, boshqa turlari – **9,7** foiz.

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 509	Zarbdor t.	872
Sharof Rashidov t.	2 258	Do'stlik t.	665
G'allaorol t.	1 568	Mirzacho'l t.	618
Zomin t.	1 438	Arnasoy t.	576
Forish t.	1 296	Zafarobod t.	501
Baxmal t.	1 145	Yangiobod t.	426
Paxtakor t.	887		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **269** tadan **311** taga (ko'payish **42** taga) ko'paydi.



## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	927	20,7 %	Zarbdor t.	258	29,7 %
G'allaorol t.	518	33,1 %	Mirzacho'l t.	203	33,1 %
Zomin t.	437	30,6 %	Arnasoy t.	202	35,1 %
Sharof Rashidov t.	434	19,2 %	Do'stlik t.	183	36,7 %
Forish t.	372	28,8 %	Zafarobod t.	157	23,8 %
Baxmal t.	349	30,6 %	Yangiobod t.	116	27,2 %
Paxtakor t.	268	30,4 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Shahar va tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Zafarobod (**36,7 foiz**), Arnasoy (**35,1 foiz**), G'allaorol (**33,1 foiz**) va Mirzacho'l (**33,1 foiz**) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 469	Zarbdor t.	869
Sharof Rashidov t.	2 256	Do'stlik t.	661
G'allaorol t.	1 563	Mirzacho'l t.	614
Zomin t.	1 430	Arnasoy t.	576
Forish t.	1 292	Zafarobod t.	498
Baxmal t.	1 140	Yangiobod t.	426
Paxtakor t.	883		



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Forish t.	632
Sharof Rashidov t.	385
Baxmal t.	354
G‘allaorol t.	325
Zomin t.	237
Jizzax sh.	227
Mirzacho‘l t.	226
Zarbdor t.	210
Arnasoy t.	205
Do‘stlik t.	162
Zafarobod t.	153
Yangiobod t.	148
Paxtakor t.	124



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	722
Sharof Rashidov t.	373
G'allaorol t.	295
Zomin t.	245
Zarbdor t.	159
Forish t.	138
Paxtakor t.	135
Baxmal t.	108
Do'stlik t.	106
Mirzacho'l t.	95
Arnasoy t.	74
Zafarobod t.	66
Yangiobod t.	55



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'sish sur'ati **92,2** foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning **17,0** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **94,8** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **62,9** foiz), **3,6** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **68,7** foiz), **1,1** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **50,0** foiz) va **0,6** foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **100,0** foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	610
Sharof Rashidov t.	224
G'allaorol t.	119
Zomin t.	101
Paxtakor t.	87
Zarbdor t.	84
Forish t.	65
Baxmal t.	58
Do'stlik t.	48
Arnasoy t.	44
Mirzacho'l t.	41
Zafarobod t.	31
Yangiobod t.	24



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **52,8** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **69,4** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **25,8** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **68,1** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **21,4** foiz ulushni va **72,4** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

397


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

328

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

811


Bino va  
inshootlar qurish



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 598
Sharof Rashidov t.	802
Zomin t.	532
G'allaorol t.	521
Baxmal t.	424
Paxtakor t.	346
Forish t.	309
Zarbdor t.	227
Do'stlik t.	223
Arnasoy t.	186
Zafarobod t.	174
Mirzacho'l t.	140
Yangiobod t.	117



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,8** foizi yoki **5 590** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **64,2** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **85,7** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,1** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **77,1** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,7** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **81,9** foizni tashkil etdi.

599

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 404

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 596

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	391
Sharof Rashidov t.	193
Zomin t.	112
G'allaorol t.	95
Paxtakor t.	78
Zarbdor t.	68
Baxmal t.	56
Mirzacho'l t.	47
Forish t.	47
Do'stlik t.	44
Yangiobod t.	29
Zafarobod t.	26
Arnasoy t.	18



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan **109,0** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **8,6** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **91,4** foiz ulushini tashkil etdi.

103

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 101


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Jizzax sh.	125
Paxtakor t.	19
Baxmal t.	16
G'allaorol t.	16
Sharof Rashidov t.	16
Zomin t.	16
Zarbdor t.	8
Arnasoy t.	7
Do'stlik t.	7
Mirzacho'l t.	7
Forish t.	6
Yangiobod t.	6
Zafarobod t.	4



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammlar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **9,9** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **100,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **24,5** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **63,3** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **65,6** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **113,7** foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	168
G'allaorol t.	33
Zomin t.	32
Sharof Rashidov t.	21
Baxmal t.	14
Zarbdor t.	12
Paxtakor t.	12
Mirzacho'l t.	10
Forish t.	9
Yangiobod t.	8
Do'stlik t.	7
Arnasoy t.	5
Zafarobod t.	4



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **335** ta yoki **1,7** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

**91,9** foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **95,4** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **5,4** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **100,0** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,7** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **81,8** foizni tashkil etdi;



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	155
Sharof Rashidov t.	85
Zomin t.	28
Zarbdor t.	25
Paxtakor t.	24
G'allaorol t.	23
Do'stlik t.	20
Baxmal t.	19
Mirzacho'l t.	15
Arnasoy t.	11
Zafarobod t.	9
Yangiobod t.	7
Forish t.	5



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **2,1** foiz ulushini tashkil etdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **66,1** foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **70,5** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi **42,1** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.






**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot**  
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**


**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

### Hududlar kesimida

Jizzax sh.	775	Mirzacho'l t.	189
Forish t.	363	Arnasoy t.	176
Sharof Rashidov t.	342	Do'stlik t.	151
Baxmal t.	329	Paxtakor t.	128
Zomin t.	322	Zafarobod t.	100
G'allaorol t.	270	Yangiobod t.	87
Zarbdor t.	232		

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

134,0 %


129,7 %

116,7 %

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

117,4 %

77,8 %



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **16 759** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **12 151** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich tashish va saqlashda **87,0** foiz, axborot va aloqada **85,2** foiz, qurilishda **84,3** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Jizzax sh.	3 643	Do'stlik t.	532
Sharof Rashidov t.	1 846	Paxtakor t.	477
Zomin t.	950	Mirzacho'l t.	462
Baxmal t.	943	Arnasoy t.	446
G'allaorol t.	873	Zafarobod t.	298
Forish t.	844	Yangiobod t.	223
Zarbdor t.	614		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoatda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **9** taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **13** taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

G'allaorol t.	204	Sharof Rashidov t.	10
Paxtakor t.	94	Baxmal t.	8
Zafarobod t.	73	Mirzacho'l t.	7
Jizzax sh.	31	Forish t.	5
Yangiobod t.	28	Zarbdor t.	3
Zomin t.	15	Do'stlik t.	2
Arnasoy t.	11		


2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,4** foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (**93,6** foiz), savdo (**70,0** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**67,9** foiz), tumanlar kesimida esa, Paxtakor (**93,5** foiz), Yangiobod (**79,4** foiz), va Forish (**72,7** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


## Hududlar kesimida

G'allaorol t.	489	Zafarobod t.	126
Jizzax sh.	434	Baxmal t.	125
Forish t.	387	Zarbdor t.	124
Zomin t.	279	Mirzacho'l t.	116
Paxtakor t.	230	Arnasoy t.	105
Yangiobod t.	166	Do'stlik t.	72
Sharof Rashidov t.	159		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	129	Baxmal t.	19
Zomin t.	102	Arnasoy t.	15
Sharof Rashidov t.	84	Zafarobod t.	9
Paxtakor t.	49	Mirzacho'l t.	7
G'allaorol t.	43	Do'stlik t.	4
Zarbdor t.	23	Forish t.	1

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2021- yilning mos davriga nisbatan **155** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **242** tadan **453** taga (o'sish **211** taga), yashash va ovqatlanishda **205** tadan **234** taga (o'sish **29** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	371	Do'stlik t.	55
Sharof Rashidov t.	233	Baxmal t.	45
Zomin t.	185	Forish t.	35
G'allaorol t.	183	Mirzacho'l t.	30
Paxtakor t.	173	Arnasoy t.	16
Zarbdor t.	108	Yangiobod t.	16
Zafarobod t.	62		

2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni **5,0** foizga kamaydi.

Yetakchi o‘rinni **73** ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **42,4** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi **22,7** foiz), Xitoy (ulushi **21,5** foiz) va Angliya (ulushi **12,2** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Jizzax sh.	<b>57</b>	Baxmal t.	<b>7</b>
Forish t.	<b>22</b>	Zafarobod t.	<b>7</b>
Sharof Rashidov t.	<b>17</b>	Arnasoy t.	<b>6</b>
Zomin t.	<b>15</b>	Yangiobod t.	<b>5</b>
G‘allaorol t.	<b>11</b>	Mirzacho‘l t.	<b>4</b>
Do‘stlik t.	<b>9</b>	Zarbdor t.	<b>3</b>
Paxtakor t.	<b>9</b>		



*2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **104** tasi qo'shma korxonalar, **68** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

<b>68</b>	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>104</b>
<b>26</b>	Jizzax shahri	<b>31</b>
<b>6</b>	Forish tumani	<b>16</b>
<b>6</b>	Sh.Rashidov tumani	<b>11</b>
<b>5</b>	Zomin tumani	<b>10</b>
<b>5</b>	Do'stlik tumani	<b>4</b>
<b>5</b>	Zafarobod tumani	<b>2</b>
<b>4</b>	G'allaorol tumani	<b>7</b>
<b>3</b>	Arnasoy tumani	<b>3</b>
<b>3</b>	Mirzacho'l tumani	<b>1</b>
<b>2</b>	Yangiobod tumani	<b>3</b>
<b>1</b>	Baxmal tumani	<b>6</b>
<b>1</b>	Zarbdor tumani	<b>2</b>
<b>1</b>	Paxtakor tumani	<b>8</b>

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi  
Tel.: (72) 221-51-24